

HAQORAT QILISH JINOYATINI TERGOV QILISH XUSUSIYATLARI

Mamadisoqov Jovlonbek Furqat o'g'li
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
3-o'quv kurs 320-guruh kursanti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola orqali muallif haqorat qilish tushunchasi, haqorat qilish uchun qonunchilikda ko'rsatib o'tilgan ma'muriy va jinoiy javobgarlikni, haqorat qilish jinoyatini jinoiy-huquqiy tahlilini ko'rsatib o'tib, mazkur jinoyatni tergov qilish bo'yicha o'z fikr mulohazasini bildirib o'tgan.

Калит сўзлар: *haqorat qilish, tuhmat qilish, sha'n, qadr-qimmat, ahloq kategoriyasi.*

АННОТАЦИЯ

Посредством данной статьи автор представляет понятие оскорбления, установленную законодательством административную и уголовную ответственность за оскорбление, уголовно-правовой анализ преступления оскорбления, а также свое мнение о расследовании этого преступления, высказал свое мнение.

Ключевые слова: *оскорбление, клевета, честь, достоинство, категория нравственности.*

ANNOTATION

Through this article, the author presents the concept of insult, the administrative and criminal responsibility for insult specified in the legislation, the criminal-legal analysis of the crime of insult, and his opinion on the investigation of this crime. expressed his opinion.

Key words: *insult, slander, honor, dignity, morality category.*

Haqorat (jinoiyat huquqida) — shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash. Beodob muomalada bo'lish turli xildagi xatti-harakatlarda, chunonchi haqoratli so'z va iboralarni aytish, bino, devorlar va fotosuratlariga haqoratlovchi yozuvlar yozish, beodob qiliqlar qilish, yuziga tarsaki urush, tupurish va h.k.da namoyon bo'ladi.

Haqorat qilish O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida fuqarolarning huquq va erkinliklariga tajovuz qiladigan huquqbuzarlik sirasiga kiritilgan. Ushbu kodeksning 41-moddasiga ko'ra, huquqbuzarlik qilish bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravaridan 40 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Birinchi marta huquqbuzarlik qilgan shaxslar, agar ularning qilmishlari jinoiy jazolashga tegishli bo'lmasa, ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin. haqorat qilish, basharti, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. Nashr qilish yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan matnda, yoxud ommaviy axborot vositalari orqali haqorat qilish bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravaridan 400 baravarigacha miqdorda jarima yoki 1 yildan 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. Haqorat qilish har doim muayyan bir shaxsga qaratilgan bo'ladi. Muayyan bir shaxsga qaratilmasdan aytilgan uyatsiz-beodob so'zlar xatti-harakatlar bezorilik deb baholanishi mumkin.

Quyidagilar haqorat sanalishi mumkin:

- So'kinish.
- Ijtimoiy qoralanuvchi atamalar: o'g'ri, fohisha.
- Salbiy tarixga ega atamalar: fashist, millatchi.
- Biror kasb nomi bilan boshqa kasbni atash, masalan shifokorni jallod, qassob deyish.
- Zoosemantik metaforalar: mol, eshak, it.
- Salbiy ma'noli fe'llar: uxlatish, kiydirish.
- Odam fe'l-atvorini salbiy baholovchi atamalar: ablah, yaramas.

Jiddiy haqoratlar ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishga sabab bo'lishi mumkin.¹

Haqorat qilish agarda unda jinoyat tarkibining alomatlari bo'lmasa avvalo O'zbekiston Respublikasi MjtKning 41-moddasiga ko'ra javobgarlikka totiladi. Haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish tushunilib bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan qirq baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.²

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 140-moddasiga ko'ra haqorat qilish ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash, basharti, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin sodir etilgan bo'lsa bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Nashr qilish yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan tarzda, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida joylashtirish orqali haqorat qilish —

¹ O'zbekiston Respublikasi

² O'zbekiston Respublikasi MJTK elektron manbaa: Lex.uz sayti <https://lex.uz/docs/-97664>

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Haqorat qilish:

- a) jabrlanuvchini o‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan bog‘liq holda;
- b) xavfli retsidivist tomonidan yoki tuhmat qilganligi uchun ilgari sudlangan shaxs tomonidan qilingan bo‘lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasiga muvofiq, “har kim o‘z sha’ni va obro‘sigacha qilingan tajovuzlardan himoyalaniş huquqiga ega”³dir. Haqorat qilish bōyicha jinoyatning bevosita ob’ekti inson o‘zga shaxsning sha’ni, qadrini hurmat qilinishini kafolatlovchi, o‘z shaxsining qadrini subektiv anglashini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Fakultativ obekt sifatida haqoratlangan insonning sog‘ligi ko‘rsatilishi mumkin. Obektiv tomondan haqorat shaxsning sha’ni va qadrini noma’qul ko‘rinishda yerga urish hisoblanadi. Shu bilan birga javobgarlik JKning 140-moddasi 1-qismi bilan yil davomida xuddi shunday harakatlar uchun ma’muriy javobgarlikka tortilgandan yuzaga keladi.

Haqorat - bu jabrlanuvchi shaxsining noma’qul ko‘rinishdagi salbiy bahosi bo‘lib, shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini yerga uradi, uning manaviy qiyofasini xam atrofida nazarida, ham o‘zining nazarida poymol qiladi. Haqorat turli ko‘rinishlarda va usullarda namoyon buladi. U faqat og‘zaki, yozma bevosita tegmasdan tana xarakatlari orqali (jabrlanuvchi tarafga qarab tuflash, xunuk qiliqlar bilan va h.k.) va bevosita tegish bilan tana xarakatlari orqali, lekin jabrlanuvchiga jismoniy zarar yetkazmasdan itarib yuborish, kiyimlarini yirtish va hk) sodir etilishi mumkin. Ko‘pchilik hollarda, haqorat bevosita ro‘y beradi, lekin u bilvosita ham bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda, 140-modda bo‘yicha javobgarlik faqat aybdor jabrlanuvchiga haqoratlari yetib borishiga ishongan taqdirdagina qo‘llanilishi mumkin. Shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini tahqirlash deganda insonga nisbatan salbiy baho berilishi tushuniladi va haqoratning tarkibi uchun bu baholarning yolg‘on yoki rostligi ahamiyatsizdir.

Agar haqorat haqiqat bo‘lganida va uyatsiz, noma’qul ko‘rinishda ifoda etilgan bo‘lsa, haqorat jinoyat tarkibi bo‘ladi. Aksincha, to‘g‘ri ifoda etilgan tanqid haqorat hisoblanmaydi. Haqorat qilishning tarkibi bo‘lishi uchun qadr-qimmatning tahqirlanishi albatta uyatsiz va noma’qul ko‘rinishda ifoda etilishi kerak ya’ni sudda

³ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi elektron manbaa: <https://constitution.uz/oz/clause/index#section7>

aniqlanadigan har bir xolat jabrlanuvchiga nisbatan jamiyatda qabul qilingan odob-axloq qoidalariga va muomala madaniyatiga zid tarzda ifodalangan bo'lishi shart. Haqorat uchun javobgarlik masalasining xal qilinishida faqatgina haqoratlangan shaxsning reaksiyasidan kelib chiqib bo'lmaydi, bu reaksiya o'zini yuqori darajada yaxshi ko'rish sababli vujudga kelishi mumkin. Har qanday tahqirlash haqoratni tashkil etavermaydi. Faqatgina qadr-qimmatni tahqirlasa va noma'qul ko'rinishda ifodalansagina haqorat hisoblanishi mumkin. Haqoratli iboralarning tarkibi turlicha bo'lishi mumkin, bu haqorat qiluvchining «ixtirochiligiga» bog'liq. Qoida bo'yicha, shaxsning noma'qul ko'rinishda baholanishi senzura zid tarzda gapirilishdan iborat bo'ladi. Shuni yodda tutish kerakki, haqorat doimo aynan bir kishiga qaratilgan bo'ladi. Manzilsiz aytilgan uyatsiz so'z va so'kinishlar bezorilik sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin JKning 140-moddasiga binoan shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlashga qaratilgan uyatsiz harakatlarni sodir etilgan vaqtdan boshlab, jabrlanuvchiga nisbatan zarar yetgan yoki yetmaganligidan qat'i nazar, jinoyat tugallangan hisoblanadi.

Subektiv jihatdan haqorat faqatgina to'g'ri qasddan sodir etilishi mumkin. Aybdor jabrlanuvchining sha'ni va qadr-qimmatini nojo'ya usulda poymol etayotganini biladi va shuni xoxlaydi. Haqoratning motivi turlicha bo'lishi mumkin va sodir etilgan jinoyatning kvalifikatsiyasiga tasir etmaydi, bezorilik motivi bundan mustasno. Jinoyatning subyekti 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

Haqoratni bezorilikdan ajratish kerak va bu yerda motiv va maqsad haqoratning sodir etilishida asosiy ro'l o'ynaydi. Qasddan bezorilik maqsadida noloyiq ko'rinishda shaxs sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash (qoida bo'yicha jamiyatda aybdor tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi) boshqa zarur belgilar mavjudligida JKning 277-moddasi (Bezorilik) bilan kvalifikatsiya qilinadi va JKning 140-moddasi bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni talab etmaydi.⁴

Bu jinoyatni tergov qilish birmuncha murakkab bo'lib, dalillarni o'z vaqtida olish va ko'zdan kechirish va ashyoviy dalil deb e'tirof etishni talab etadi. Bu jinoyat bo'yicha shaxs ilgari ma'muriy javobgarlikka tortilganligini aniqlashni choralarini ko'rish kerak bo'ladi. Agar haqorat qilish ko'pchilik oldida bo'lgan bo'lsa mazkur jarayonni ko'rgan shaxslarni aniqlash va uladan tushuntirishlar olish, jinoyat ishi qo'zg'atgandan so'ng esa ularni guvoh tariqasida so'roq qilish kerak. Agar gumon qilinuvchi va jabrlanuvchi ko'rsatmalari o'rtasida qarama-qarshiliklar bo'lsa ularni yuzlashtirish choralarini ko'rish, eng muhimi bu modda bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atish masalasini hal qishda bu modda O'zbekiston Respublikasi JPKning 325-

⁴ O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi III tom oliy ta'lim muassasalari uchun darslik M.X.Rustamboyev T.2018 yil 293-295 b.

moddasi talablariga ko'ra jabrlanuvchining shikoyatiga ko'ragina qo'zg'atilishini inobatga olish, agarda shikoyat arzimagan sababga ko'ra bo'lsa uni to'liq o'rganib chiqish shaxs haqorat qilishda jabrlanuvchini kamsitish maqsadida so'zlarni ishlatganligiga e'tibor qaratish kerak. Agar shaxs haqorat qilmasdan faqat uyatli so'zlarni o'zinigina ishlatsa O'zbekiston Respublikasi MJtKning 183-moddasi bo'yicha ma'muriy javobgarlikka tortiladi. Haqorat qilish jinoyatini tergov qilish jarayonida surishtiruvchi, tergovchi tomonidan shaxslarni yarashish imkoniyatiga ega ekanligi tushuntirib, bu jarayonni bayonnomalashtirib qo'yishi, agar shaxslar yarashish istagini bildirsalar agar qilmish O'zbekiston Respublikasi JKning 66¹ moddasi talablariga mos kelsa ya'ni 140-moddasi 1 va 2 qismlari doirasida bo'lsa jinoyatni tomonlarni yarashganligi munosabati bilan jinoyat ishini tamomlash choralarni ko'rish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Wikipedia ma'lumoti elektron manbaa: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Haqorat>
2. O'zbekiston Respublikasi MJtK elektron manbaa: Lex.uz sayti <https://lex.uz/docs/-97664>
3. O'zbekiston Respublikasi JK elektron manbaa Lex.uz sayti <https://lex.uz/acts/-111453>
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi elektron manbaa: <https://constitution.uz/oz/clause/index#section7>
5. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi III tom oliy ta'lim muassasalari uchun darslik M.X.Rustamboyev T.2018 yil 290-293 b.